

GLOBAL JARAYONLAR VA IJTIMOIIY MOBILLIK: O'ZBEKISTON VA JAHON TAJRIBASI

Karimova Lola Muzafarovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, PhD

Globallashuv sharoitida ijtimoiy mobillik jamiyat taraqqiyotining eng muhim ko'rsatkichlaridan biriga aylandi. Raqamli texnologiyalar, xalqaro ta'lim, mehnat migratsiyasi va gender tengligi siyosatlari dunyo mamlakatlarida ijtimoiy mobillikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston tajribasini AQSh, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlar bilan qiyosiy tahlil qilish, mavjud yutuqlar va rivojlanish istiqbollarini yanada aniqlab beradi.

XXI asrda jamiyatlarning taraqqiyoti va ijtimoiy tizimlarning o'zgarishi global jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi. Globallashuv, raqamli transformatsiya, mehnat migratsiyasi, ekologik va demografik o'zgarishlar insonlarning hayot tarziga ham, ularning jamiyatdagi mavqeiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jarayonda ijtimoiy mobillik — shaxs va guruhlarining ijtimoiy pog'onalarda yuqoriga ko'tarilishi yoki pastga tushishi, bir qatlamdan boshqasiga o'tishi — zamonaviy jamiyatning asosiy ko'rsatkichlaridan biriga aylandi.

Jamiyatning barqaror rivojlanishi va demokratik qadriyatlarning qaror topishi avvalo ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga bog'liq. Gender tengligi nafaqat huquqiy yoki siyosiy masala, balki iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va inson huquqlarini ro'yobga chiqarishning asosiy omili hisoblanadi. Hotin-qizlarning ijtimoiy mobilligi, ya'ni ularning ta'lim, mehnat, siyosiy va madaniy sohalarda yuqori mavqega erishishi jamiyatning taraqqiyotini belgilaydi.

O'zbekiston ham global jarayonlar ta'sirida ijtimoiy mobillik siyosatini shakllantirmoqda. "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" kabi dasturlar, raqamli iqtisodiyotga o'tish, onlayn ta'limning kengayishi, xorijiy universitetlar bilan hamkorlik va mehnat migratsiyasi bo'yicha xalqaro shartnomalar buning amaliy ko'rinishidir. IT-parklar va startaplarni qo'llab-quvvatlash esa yoshlar uchun yangi ijtimoiy lift sifatida xizmat qilmoqda.

Globallashuvning ijobiy tomoni shundaki, u insonlar uchun xalqaro darajada bilim olish, yangi kasb va malakalarni egallash, mehnat bozorida o'z o'rnini topish imkoniyatini kengaytirmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar tufayli dunyoning istalgan nuqtasida sifatli ta'lim olish mumkin bo'lib qoldi. Shu bilan birga, raqamli tafovut, iqtisodiy tengsizlik va migratsiya oqibatida yuzaga kelayotgan muammolar ayrim guruhlarining ijtimoiy mobilligini cheklab qo'ymoqda.

Ta'lim global jarayonlarning ijtimoiy mobillikka eng kuchli ta'sir ko'rsatadigan yo'nalishlaridan biridir. Onlayn ta'lim va masofaviy kurslar orqali yoshlar va kattalar yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmoqda. Bu imkoniyat rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan O'zbekistonda, ijtimoiy pog'onalar bo'ylab ko'tarilish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, texnologiyalardan foydalanish imkoniyati hududlar o'rtasida farqlanishi yangi ijtimoiy tafovutlarga sabab bo'lmoqda.

Mehnat migratsiyasi ham global jarayonlarning asosiy ko'rinishlaridan biridir. Insonlar o'z mamlakatida topa olmagan ishni chet elda topib, moddiy ahvolini yaxshilashga intilmoqda. Bu ularning oilasi va jamiyatiga ham iqtisodiy foyda keltiradi. Lekin, migratsiya jarayonida ijtimoiy himoya, huquqiy kafolatlar

va madaniy moslashuvdagi qiyinchiliklar ham mavjud. Shunday ekan, migratsiya ijtimoiy mobillik uchun imkoniyat ham, muammo ham hisoblanadi.

Gender tengligi ham global jarayonlar ta'sirida ijtimoiy mobillikning asosiy qirrasiga aylandi. Xalqaro tashkilotlar – BMT, YuNESKO va Xalqaro mehnat tashkiloti ayollar uchun ta'lim, mehnat bozori va siyosatda teng imkoniyatlarni ta'minlashni qo'llab-quvvatlamoda. Natijada, ayollarning jamiyatdagi mavqei oshmoqda, biroq ayrim hududlarda an'anaviy qarashlar va gender stereotiplari hali ham mavjud.

O'zbekiston global jarayonlardan faol foydalanib, milliy sharoitga moslashtirilgan ijtimoiy mobillik siyosatini shakllantirmoqda. Oliy ta'lim muassasalari sonining ortishi, xorijiy universitetlar filiallarining ochilishi, raqamli ta'limning kengayishi va IT sohalariga yoshlarni jalb qilish jarayonlari buni tasdiqlaydi. "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" kabi dasturlar yoshlar va xotin-qizlarni iqtisodiy faoliyatga kengroq jalb etmoqda. Shuningdek, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari ko'plab fuqarolarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlamoqda.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, AQSh, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlarda ijtimoiy mobillik ta'lim tizimi va raqamli iqtisodiyot orqali yuqori darajada ta'minlangan. AQShda mashhur universitetlar xalqaro miqyosdagi "ijtimoiy lift" sifatida xizmat qilmoqda. Janubiy Koreyada ta'lim va texnologiyalar tufayli qisqa vaqt ichida jamiyatda yuqori mobillikka erishildi. Singapurda esa meritokratiya siyosati – insonning mehnati va bilimiga asoslangan yondashuv – eng samarali vosita sifatida tan olingan. O'zbekiston ham bu tajribalarni

o'zlashtirib, yoshlar va ayollar uchun teng imkoniyatlarni kengaytirishga intilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, global jarayonlar ijtimoiy mobillikning mazmun va shaklini tubdan o'zgartirmoqda. Ular ta'lim, mehnat bozori, gender tengligi va raqamli texnologiyalar orqali yangi imkoniyatlar ochmoqda, ammo shu bilan birga tengsizlik, migratsiya muammolari va raqamli tafovut kabi qiyinchiliklarni ham yuzaga keltirmoqda. O'zbekiston bu jarayonlardan oqilona foydalanib, adolat va tenglik tamoyillari asosida siyosat olib borsa, global sharoitda yuqori ijtimoiy mobillikka erishishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Parsons T. *The Social System*. Glencoe: The Free Press, 1951.
2. Giddens A. *Sociology*. Polity Press, 2013.
3. Karimov I. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-iyundagi “Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning bandligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ–5150-son qarori.